



SOCIO-PHILOSOPHICAL MECHANISMS OF INTERACTION BETWEEN VALUES AND SOCIAL CONSCIOUSNESS

Nodira Fayzimurotovna Yalgasheva

Deputy Director for Academic Affairs at Secondary School No. 16
under the Jizzakh City Department of Preschool and School Education

E-mail: n.scienceofworld@gmail.com

Science ID: MJZ-0826-0081

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: value, understanding of values, revaluation, historical memory, social consciousness, personal consciousness, socialization, family, education, ideology, personal factor, economic relations, etc.

Received: 09.09.26

Accepted: 10.09.26

Published: 11.09.26

Abstract: This article analyzes the socio-philosophical mechanisms of the interaction between values and social consciousness. Furthermore, the article provides a scientific and theoretical justification for the fact that the relationship between values and social consciousness is one of the main factors determining the spiritual development of society.

QADRIYATLAR VA IJTIMOIIY ONG O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI

Nodira Fayzimurotovna Yalgasheva

Jizzax shahar MMTB ga qarashli

16- sonli maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

n.scienceofworld@gmail.com

Ilmiy identifikatsiya raqami: MJZ-0826-0081

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: qadriyat, qadriyatlarni anglash, qayta baholash, tarixiy xotira, ijtimoiy ong, shaxsiy ong, ijtimoiylashuv, oila, ta'lim-tarbiya, mafkura, shaxs omili, iqtisodiy munosabatlar va boshqalar.

Annotatsiya: Maqolada qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro ta'sirning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi munosabat jamiyatning ma'naviy taraqqiyotini belgilab

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЦЕННОСТЕЙ И ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ

Нодира Файзимуротовна Ялгашева

Заместитель директора по учебной работе

общеобразовательной школы № 16,

подведомственной Отделу дошкольного и школьного образования города Джизака

E-mail: n.scienceofworld@gmail.com

Научный идентификационный номер: MJZ-0826-0081

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: понимание ценностей, историческая память, сознание, социализация, идеология, экономические отношения и др.	ценность, переоценка, общественное сознание, образование, личностный фактор,	Аннотация: анализируются социально-философские механизмы взаимодействия ценностей и общественного сознания. Кроме того, в статье научно и теоретически обосновывается тот факт, что взаимосвязь ценностей и общественного сознания является одним из главных факторов, определяющих духовное развитие общества.	В статье
--	--	---	------------------------

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida qadriyatlar insonlarning dunyoqarashi, ijtimoiy xulq-atvori, maqsad va manfaatlarini belgilovchi muhim ma'naviy-ijtimoiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Qadriyatlar jamiyat tomonidan tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllantirilgan axloqiy me'yorlar, ijtimoiy ideallar, madaniy an'analar, ma'naviy mezonlar hamda hayotiy ustuvorliklarni o'zida mujassamlashtiradi. Shu bilan birga, ular inson ongida shunchaki tayyor shaklda aks etmaydi, balki shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab ijtimoiy munosabatlar, ta'lim-tarbiya, madaniyat, tarixiy xotira va ijtimoiy tajriba orqali o'zlashtiriladi. Shu nuqtai nazardan, qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim nazariy masalalaridan biridir.

Ijtimoiy ong jamiyatning borliq, ijtimoiy munosabatlar, tarixiy jarayonlar va inson faoliyatiga doir qarashlari, tasavvurlari, g'oyalari va baholash mezonlarini ifodalovchi murakkab ma'naviy hodisadir. Uning axloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik va falsafiy shakllari jamiyatdagi qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'langan. Muayyan jamiyatda ustuvor bo'lgan qadriyatlar ijtimoiy ongning mazmuniga ta'sir ko'rsatsa, ijtimoiy ongda o'zgarishlar, o'z navbatida, mavjud qadriyatlarning qayta baholanishi, yangilanishi yoki yangi qadriyatlarning

shakllanishiga sabab bo'ladi. Demak, qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi munosabat bir tomonlama emas, balki o'zaro ta'sir va transformatsiyaga asoslangan dialektik jarayondir.

Qadriyatlarning ijtimoiy ongga ta'siri, avvalo, ijtimoiylashuv mexanizmi orqali amalga oshadi. Inson oilada, ta'lim muassasasida, mahallada, mehnat jamoasida va boshqa ijtimoiy institutlarda mavjud me'yor hamda qadriyatlarni o'zlashtirib boradi. Mazkur jarayonda qadriyatlar tashqi ijtimoiy talabdan shaxsning ichki e'tiqodi, hayotiy pozitsiyasi va xulq-atvor mezoniga aylanadi. Ayniqsa, ta'lim va tarbiya tizimi yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, tarixiy xotirani mustahkamlash hamda ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi.

Asosiy qism. Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari qadriyatlar bilan ijtimoiy ong o'rtasidagi munosabatlarni yanada murakkablashtirmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi turli madaniy modellar, g'oyalar va hayot tarzlarining tezkor tarqalishiga imkon yaratdi. Natijada shaxsning qadriyat tanlovi faqat mahalliy ijtimoiy-madaniy muhit ta'sirida emas, balki global axborot makoni ta'sirida ham shakllanmoqda. Bunday sharoitda milliy qadriyatlarni asrash bilan bir qatorda, umuminsoniy qadriyatlarni anglash, turli qarashlarga nisbatan tanqidiy va tolerant munosabatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi aloqani o'rganishda tarixiylik, tizimlilik, dialektik va aksiologik yondashuvlar muhim metodologik ahamiyatga ega. Aksiologik yondashuv qadriyatlarning inson va jamiyat hayotidagi mazmunini aniqlashga xizmat qilsa, dialektik yondashuv qadriyatlar hamda ijtimoiy ongning o'zaro ta'siri va o'zgaruvchanligini ochib berish imkonini beradi. Tizimli yondashuv esa oila, ta'lim, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari kabi subyektlarning qadriyatlarni shakllantirish va uzatishdagi o'rnini yaxlit holda tahlil qilishni nazarda tutadi.

O'zbekiston jamiyatida amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy yangilanishlar sharoitida qadriyatlar tizimining transformatsiyasi ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Milliy o'zlik, tarixiy xotira, oila, vatanparvarlik, inson qadr-qimmati, bag'rikenglik, adolat va ijtimoiy mas'uliyat kabi qadriyatlarning zamonaviy ijtimoiy ongda o'rni jamiyat barqarorligi va ma'naviy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli qadriyatlarning ijtimoiy ongda shakllanish, mustahkamlanish va avloddan avlodga uzatilish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ma'lumki, insoniyatning tarixiy taraqqiyotiga nazar tashlar ekanmiz, har bir davrda shakllangan ijtimoiy munosabatlar tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Jamiyat taraqqiy etgani sari insonlar o'rtasidagi munosabatlarning mazmuni, shakllari va

ularni tartibga soluvchi mexanizmlar ham o'zgarib, takomillashib borgan. Shu ma'noda, ijtimoiy munosabatlarni jamiyat rivojining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida baholash mumkin.

Ayniqsa, XXI asrga kelib, globallashuv jarayonlarining tobora chuqurlashishi jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsata boshladi. Bugungi kunda insonlar o'rtasidagi aloqalar nafaqat muayyan hudud yoki ijtimoiy muhit doirasida, balki keng va global makonda kechmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet tarmog'ining kengayishi, migratsiya jarayonlarining faollashuvi, iqtisodiy va madaniy integratsiyaning kuchayishi natijasida ijtimoiy munosabatlar yangi mazmun va shakl kasb etmoqda. "Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur'atlari misli ko'rilmagan darajada shiddatli tus olmoqda. Ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda"[1]. Shu boisdan ham inson va jamiyat hayotini anglashda qadriyatlar hamda ijtimoiy ong o'rtasidagi munosabat masalasi falsafaning eng dolzarb va chuqur mazmunga ega bo'lgan mavzularidan biri hisoblanadi. Chunki jamiyatning taraqqiyoti faqat iqtisodiy imkoniyatlar, siyosiy tuzilmalar yoki texnologik yutuqlar bilan emas, balki insonlarning ma'naviy dunyosi, ular tomonidan qabul qilingan g'oyalar, meyorlar va qadriyatlar tizimi bilan ham belgilanadi.

Qadriyat tushunchasi inson va jamiyat uchun muayyan ahamiyatga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy hodisalarni ifodalaydi. M. Bekmurodovning fikriga ko'ra, "millat o'zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi-yangi qirralarini va jihatlarini sayqallashtirib, taraqqiyot jarayonida tamokillashtirib, o'z qadriyatlarining haqiqiy egasi, makon va zamondagi ilgarilama harakatdan iborat o'zgarishlar jarayonida ularni o'tmishdan kelajak tomon yetkazib boradigan eng asosiy obyektidir"[2]. Shu ma'noda qadriyatlar insonning voqelikka bo'lgan munosabatini belgilaydi, nimani muhim, zarur va maqbul deb hisoblashida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, qadriyatlar orqali inson nafaqat tashqi olamni anglaydi, balki o'z hayotining mazmuni, maqsadi va yo'nalishini ham belgilaydi. Masalan, adolat, erkinlik, tinchlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilm, oila, inson qadri kabi tushunchalar ko'plab jamiyatlar uchun muhim ma'naviy mezonlar hisoblanadi. Ular insonlarning shaxsiy qarashlarini shakllantirish bilan birga, butun jamiyatning ma'naviy qiyofasini ham belgilaydi.

Ijtimoiy ong esa jamiyat a'zolarining umumlashgan qarashlari, g'oyalari, his-tuyg'ulari, e'tiqodlari va bilimlari tizimidan iborat bo'lgan murakkab ma'naviy hodisadir. U jamiyatning o'zini anglash shakli sifatida namoyon bo'ladi. Insonlar o'z hayoti davomida muayyan qadriyatlarni qabul qiladilar, ularni baholaydilar va o'z faoliyatlarida qo'llaydilar. Ana shu jarayonda qadriyatlar ijtimoiy ongning mazmuniga aylanadi. Shuning uchun qadriyatlar ijtimoiy ongning mazmuniy asoslaridan biri hisoblanadi. Agar jamiyatda muayyan qadriyatlar ustuvor

bo'lsa, ular odamlarning dunyoqarashida, ijtimoiy munosabatlarida va amaliy faoliyatida o'z ifodasini topadi. "Ijtimoiy ongda qadriyatlarni anglash va qayta baholash hermenevtik mexanizmi orqali amalga oshadi, unda o'tmish an'analari va hozirgi zamon konteksti uchrashadi" [3].

Qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi munosabatni tushunish uchun ularning o'zaro ta'sir mexanizmlarini tahlil qilish zarur. Bu mexanizmlar jamiyatning ma'naviy hayotida amal qiladigan murakkab jarayonlardan iborat bo'lib, ular orqali qadriyatlar shakllanadi, tarqaladi, o'zgaradi va avlodlar o'rtasida uzatiladi. Birinchi navbatda, bu jarayon ijtimoiy tajribani o'zlashtirish mexanizmi orqali amalga oshadi. Inson tug'ilganidan boshlab muayyan ijtimoiy muhitda yashaydi va shu muhitda mavjud bo'lgan qadriyatlarni o'zlashtiradi. Oila, ta'lim muassasalari, madaniyat, an'analari va jamoatchilik munosabatlari inson ongida muayyan qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Shu tariqa shaxsiy ong ijtimoiy ong bilan bog'lanadi va jamiyatning ma'naviy tajribasi shaxs dunyoqarashida aks etadi.

Qadriyatlarning ijtimoiy ongga ta'sirining muhim mexanizmi — ijtimoiylashuv jarayonidir. Ijtimoiylashuv insonning jamiyatda qabul qilingan meyorlar, qoidalar va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonini anglatadi. Inson aynan shu jarayon orqali jamiyatning to'laqonli a'zosiga aylanadi. Bu jarayonda oila instituti muhim ahamiyatga ega. "Oila — jamiyatning boshlang'ich instituti bo'lib, u milliy qadriyatlarni ommaviy ijtimoiy ongga singdirish va avlodlar o'rtasidagi ma'naviy davomiylikni ta'minlashning birlamchi mexanizmidir" [4]. Bolalik davridan boshlab ya'ni oilada inson yaxshilik va yomonlik, halollik va adolat, mas'uliyat va burch kabi tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'ladi. Keyinchalik bu tushunchalar uning shaxsiy e'tiqodiga aylanadi va ijtimoiy ongning individual ko'rinishini shakllantiradi. Demak, qadriyatlar ijtimoiy ongda tayyor holda mavjud bo'lmaydi, balki insonning hayotiy tajribasi va ijtimoiy muhit ta'sirida o'zlashtiriladi.

Qadriyatlar va ijtimoiy ong munosabatida til alohida o'rin tutadi. Til nafaqat fikrni ifoda etish vositasi, balki qadriyatlarni saqlash va uzatish mexanizmi hamdir. Har bir xalqning tilida uning tarixi, madaniyati, dunyoqarashi va ma'naviy tajribasi aks etadi. Masalan, xalq maqollari, afsonalar, adabiy asarlar va tarixiy xotira namunalari orqali avlodlar o'zidan oldingi avlodlarning qadriyatlarini o'zlashtiradi. Shu ma'noda til ijtimoiy ongning shakllanishida va qadriyatlarning barqaror saqlanishida muhim vosita vazifasini bajaradi.

Qadriyatlar ijtimoiy ongning nafaqat mazmuniga, balki uning yo'nalishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat qaysi qadriyatlarni ustuvor deb bilsa, uning taraqqiyot yo'nalishi ham shunga mos ravishda shakllanadi. Agar jamiyatda ilm-fan, mehnat, adolat va inson qadri yuqori baholansa, bu qadriyatlar ijtimoiy ongda taraqqiyotga yo'naltiruvchi g'oyalar sifatida namoyon bo'ladi. Aksincha, zo'ravonlik, befarqlik yoki ma'naviy inqiroz kabi holatlar kuchaysa, bu ijtimoiy

ongning salbiy tomonlariga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli qadriyatlar jamiyatning ma'naviy immunitetini belgilaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi. "Fuqarolik odatlari va udumlari («qalb odatlari» — mœurs) demokratik qadriyatlarni jamoatchilik ongiga chuqur singdirish va jamiyat barqarorligini ta'minlashning bosh mexanizmidir"[5].

Ijtimoiy ong esa o'z navbatida qadriyatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki qadriyatlar o'z-o'zidan o'zgarmaydi, balki insonlarning anglash jarayoni, ijtimoiy ehtiyojlari va tarixiy sharoitlar ta'sirida qayta baholanadi. Jamiyat taraqqiyoti davomida ayrim qadriyatlarning mazmuni o'zgarishi, yangi qadriyatlarning paydo bo'lishi mumkin. Masalan, zamonaviy dunyoda inson huquqlari, ekologik mas'uliyat, axborot madaniyati va barqaror taraqqiyot kabi yangi qadriyatlar ijtimoiy ongning rivojlanishi natijasida keng ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa ijtimoiy ong va qadriyatlar o'rtasidagi munosabat ikki tomonlama jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Qadriyatlarning shakllanishida tarixiy xotira ham muhim ijtimoiy-falsafiy mexanizm hisoblanadi. Har bir jamiyat o'z tarixiy tajribasi orqali muayyan qadriyatlarni yaratadi va ularni keyingi avlodlarga yetkazadi. Tarixiy xotira xalqning o'zligini anglashiga, ma'naviy birligini saqlashiga va kelajak yo'nalishlarini belgilashiga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar aynan tarixiy tajriba asosida shakllanadi va ijtimoiy ongning muhim tarkibiy qismiga aylanadi. "Tarixiy meros qadriyatlarini zamonaviy ijtimoiy ongga adaptatsiya qilish mexanizmi jamiyatning aksiologik immunitetini va sotsiomadaniy barqarorligini ta'minlaydi"[6]. Shu bois tarixiy xotirani asrash va uni ilmiy asosda o'rganish jamiyat ma'naviy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi ta'sir mexanizmlaridan yana biri — mafkuraviy mexanizmdir. Mafkura muayyan g'oyalar va qadriyatlarni tizimlashtirib, ularni jamiyat a'zolari uchun umumiy maqsadlar shaklida namoyon qiladi. U ijtimoiy ongga kuchli ta'sir ko'rsatib, insonlarni muayyan g'oyalar atrofida birlashtirishi mumkin. Biroq mafkura insonparvarlik va ijtimoiy taraqqiyot tamoyillariga asoslangandagina ijobiy ahamiyat kasb etadi. Qadriyatlar mafkuraning ma'naviy asosini tashkil etadi, mafkura esa ularni ijtimoiy hayotda amalga oshirish vositasiga aylanadi.

Qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi ta'sir mexanizmlarida ta'lim va tarbiya tizimi alohida o'rin tutadi. Ta'lim insonga bilim berish bilan birga, uning qadriyatlarga munosabatini ham shakllantiradi. Yosh avlodga qanday qadriyatlar o'rgatilishi kelajak jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilab beradi. Shuning uchun ta'lim jarayonida nafaqat kasbiy bilimlar, balki axloqiy, madaniy va fuqarolik qadriyatlarini ham shakllantirish muhimdir. Insonning bilimli bo'lishi bilan birga, ma'naviy yetuk va ijtimoiy mas'uliyatli bo'lishi jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyat sharoitida qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonlari yanada murakkab va ko'p qirrali tus olmoqda. Bu, avvalo, globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi va ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllari paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Ilgarigi davrlarda qadriyatlar asosan oila, mahalla, diniy institutlar, ta'lim va milliy an'analar orqali shakllangan bo'lsa, bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, internet platformalari va raqamli kommunikatsiyalar ham insonlarning qadriyatlar tizimiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

Qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro ta'sirning muhim mexanizmlaridan biri — ma'naviy identifikatsiya jarayonidir. Inson o'zini muayyan ijtimoiy guruh, millat, madaniyat yoki umuminsoniy jamoaning bir qismi sifatida anglaydi. Bu jarayonda u muayyan qadriyatlarni o'zining shaxsiy va ijtimoiy «men»ini belgilab beruvchi asos sifatida qabul qiladi. Masalan, insonning vatanparvarlik, milliy madaniyatga hurmat, tarixiy xotiraga munosabat kabi qarashlari uning ijtimoiy identifikatsiyasida muhim o'rin tutadi. Biroq zamonaviy dunyoda inson bir vaqtning o'zida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish ehtiyojiga ega. Chunki globallashuv sharoitida shaxs faqat muayyan madaniy muhit a'zosi emas, balki butun insoniyat taraqqiyoti jarayonining ishtirokchisi sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu jarayon ijtimoiy ongning tarixiy va harakatchan xususiyatini ifodalaydi.

Qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro ta'sirning asosiy mexanizmlaridan yana biri — ma'naviy qabul qilish va qayta ishlash jarayonidir. Inson jamiyatda mavjud bo'lgan qadriyatlarni tayyor holda mexanik ravishda qabul qilmaydi, balki ularni o'z tafakkuri, hayotiy tajribasi va ijtimoiy muhiti orqali anglaydi. Bir xil qadriyat turli ijtimoiy guruhlar yoki turli tarixiy davrlarda turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan, erkinlik tushunchasi turli jamiyatlarda har xil mazmun kasb etishi mumkin, ammo uning inson qadri va mustaqil fikrlash bilan bog'liq umumiy jihatlari saqlanib qoladi. Demak, qadriyatlar ijtimoiy ongda doimo muayyan ijtimoiy va tarixiy sharoit ta'sirida qayta mazmunlanib boradi.

Bu jarayonda ijtimoiy tafakkurning roli juda kattadir. Tafakkur insonga mavjud qadriyatlarni tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini baholash hamda yangi ma'naviy yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi. Agar jamiyatda tanqidiy va mustaqil fikrlash madaniyati rivojlangan bo'lsa, qadriyatlar tizimi ham yanada mazmunli va taraqqiyparvar xususiyat kasb etadi. Aks holda, eski qarashlar va stereotiplar ijtimoiy ongda uzoq vaqt saqlanib qolishi mumkin. Shu ma'noda ijtimoiy ongning rivojlanganlik darajasi jamiyatning qadriyatlarni anglash va ularni takomillashtirish qobiliyati bilan belgilanadi.

Qadriyatlar va ijtimoiy ong munosabatida jamoaviy xotira mexanizmi ham muhim ahamiyatga ega. Jamoaviy xotira "jamiyat a'zolarini jipslashtirib turuvchi asosiy kuch — bu

individlilar ongidan tashqarida joylashgan jamoaviy tasavvurlar va umumiy qabul qilingan ma'naviy qadriyatlardir"[7]. Jamoaviy xotira — bu jamiyatning o'z tarixiy tajribasi, muhim voqealari, buyuk shaxslari va ma'naviy merosi haqidagi umumiy tasavvurlaridir. U ijtimoiy ongning muhim tarkibiy qismi bo'lib, qadriyatlarning barqaror saqlanishini ta'minlaydi.

Qadriyatlar va ijtimoiy ongning o'zaro ta'sirida iqtisodiy munosabatlar ham muhim o'rin tutadi. Jamiyatning iqtisodiy tuzilishi insonlarning hayot tarzi va ehtiyojlariga ta'sir qiladi, bu esa o'z navbatida qadriyatlar tizimida aks etadi. Masalan, mehnatga munosabat, mulkka qarash, iste'mol madaniyati va ijtimoiy mas'uliyat kabi qadriyatlar iqtisodiy muhit bilan bog'liq holda shakllanadi. "Iqtisodiy almashinuv zamonaviy ijtimoiy ongda qadriyatlarni miqdoriy (abstrakt) baholash mexanizmini shakllantiradi va kundalik axloqni pragmatik mazmun bilan to'ldiradi"[8].

Ijtimoiy ong va qadriyatlar munosabatida shaxs omili ham alohida ahamiyatga ega. Chunki har qanday ijtimoiy o'zgarishlar avvalo insonlar faoliyati orqali amalga oshadi. Shaxs muayyan qadriyatlarni qabul qilish, ularni himoya qilish yoki yangilash orqali jamiyat ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Tarixdagi ko'plab buyuk o'zgarishlar insonlarning yangi g'oyalar va qadriyatlar asosida harakat qilishi natijasida yuzaga kelgan. Demak, inson ijtimoiy ongning ham obyekti, ham subyekti hisoblanadi.

Qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish ularning jamiyat ma'naviy hayotining o'zaro chambarchas bog'langan tarkibiy qismlari ekanligini ko'rsatadi. Qadriyatlar jamiyat a'zolarining borliq va ijtimoiy hodisalarga munosabatini belgilovchi mezonlar tizimini shakllantirsa, ijtimoiy ong ushbu qadriyatlarni anglash, baholash, o'zlashtirish va qayta ishlab chiqishning ma'naviy maydoni vazifasini bajaradi. Shu sababli qadriyatlar ijtimoiy ongning mazmuniga ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, ijtimoiy ongda o'zgarishlarning o'zi ham qadriyatlar tizimining transformatsiyasiga olib keladi.

Tadqiqot natijasida qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro ta'sirning asosiy mexanizmlari sifatida ijtimoiylashuv, ta'lim va tarbiya, madaniy vorisiylik, tarixiy xotira, ijtimoiy kommunikatsiya, jamoatchilik fikri hamda axborot almashinuvi jarayonlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Ushbu mexanizmlar orqali jamiyatda shakllangan qadriyatlar shaxs ongiga singdiriladi, individual e'tiqod va ijtimoiy xulq-atvor mezoniga aylanadi hamda avlodlar o'rtasida uzluksiz uzatib boriladi.

Ayni paytda globallashuv va raqamli kommunikatsiya muhitining kengayishi qadriyatlarni shakllantirishning an'anaviy mexanizmlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va global axborot makoni insonning qadriyat tanlovini kengaytirishi bilan birga, qarama-qarshi g'oyalar, madaniy stereotiplar va turli qadriyat modellarining bir vaqtda ta'sir qilishiga sharoit yaratmoqda. Shu bois zamonaviy sharoitda qadriyatlarni shunchaki targ'ib qilishdan ko'ra,

shaxsda ularning mazmunini ongli ravishda anglash, mustaqil baholash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. O'zbekiston sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligini ta'minlash, yosh avlodning tarixiy xotirasi va milliy o'zligini mustahkamlash, inson qadr-qimmati, adolat, bag'rikenglik, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi qadriyatlarni ijtimoiy ongning barqaror tarkibiy qismiga aylantirish muhimdir. Bunda oila, maktab, mahalla, madaniyat muassasalari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro ta'sir doimiy ravishda yangilanib boruvchi dialektik jarayondir. Jamiyatning barqaror ma'naviy taraqqiyoti esa tarixiy-madaniy merosni saqlash, zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olish va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga bog'liq. Shu jihatdan qadriyatlar tizimini rivojlantirish ijtimoiy ongni yuksaltirishning, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashning va ma'naviy barqaror jamiyatni shakllantirishning muhim ijtimoiy-falsafiy omili sifatida baholanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro ta'sir murakkab ijtimoiy-falsafiy mexanizmlar orqali amalga oshadi. Bu mexanizmlarga ijtimoiylashuv, ta'lim va tarbiya, madaniy meros, til, tarixiy xotira, axborot muhiti, mafkuraviy ta'sir va shaxsiy ma'naviy tajriba kabi omillar kiradi. Ularning har biri jamiyatning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Qadriyatlar ijtimoiy ongga mazmun bersa, ijtimoiy ong qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish va amaliy hayotga tatbiq etish imkonini yaratadi. Natijada, qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi munosabat jamiyatning ma'naviy taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak // Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. 22.12.2023 // <https://president.uz/uz/lists/view/6941>
2. Bekmurodov M. Millii mentalitet va ma'naviyat. – Toshkent: 2002. – B. 10
3. Гадамер Х.-Г. Истина и метод: Основы философской герменевтики. – Москва: «Прогресс», 1988. – С. 360–361.
4. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Toshkent: «Ma'naviyat», 1998. – B. 18–19.
5. Токвиль А. де. Демократия в Америке. – Москва: «Прогресс», 1992. – С. 241.
6. Жўраев Б. Ижтимоий онг трансформацияси ва маънавий қадриятлар. – Toshkent: «Ўзбекистон», 2015. – Б. 54.

7. Дюркгейм Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение. – Москва: «Канон», 1995. – С. 245.
8. Зиммель Г. Философия денег // Избранное. Т. 2. – Москва: «Юрист», 1996. – С. 52–53.